

KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRARISH JARAYONIDAGI TENDENSIYALARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Salayev Jasurbek Komilovich

Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

Annotatsiya

Maqolada Xorazm viloyati misolida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy tendensiyalar tahlil qilingan. Tadqiqotda so'nggi yillarda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, o'sish sur'atlari va tarkibiy xususiyatlari statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Hududiy kesimda kichik biznesning sanoatdagi ulushi, yetakchi tarmoqlardagi faolligi hamda ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri aniqlanib, investitsion jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Shuningdek, kichik biznesning sanoat rivojlanishidagi imkoniyatlari va mavjud muammolari tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, sanoat, ishlab chiqarish tendensiyalari, Xorazm viloyati, investitsiya, hududiy rivojlanish.

Аннотация

В статье проанализированы основные тенденции участия малого бизнеса в процессе промышленного производства на примере Хорезмской области. В исследовании на основе статистических данных рассмотрены объемы выпуска промышленной продукции малыми предприятиями за последние годы, темпы роста и структурные особенности. В региональном разрезе выявлена доля малого бизнеса в промышленности, его активность в ведущих отраслях и влияние на эффективность производства, а также взаимосвязь с инвестиционными процессами. Кроме того, определены возможности и существующие проблемы развития малого бизнеса в промышленной сфере и предложены практические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: малый бизнес, промышленность, тенденции производства, Хорезмская область, инвестиции, региональное развитие.

Abstract

The article analyzes the main trends of small business participation in industrial production processes, using the Khorezm region as a case study. Based on statistical data, the study examines the volume of industrial output produced by small enterprises in recent years, growth rates, and structural characteristics. The regional analysis identifies the share of small business in industry, its activity in leading sectors, and its impact on production efficiency, as well as the interrelation with investment processes. Furthermore, the opportunities and existing challenges of small business development in industry are assessed, and practical recommendations for their improvement are proposed.

Keywords: small business, industry, production trends, Khorezm region, investment, regional development..

KIRISH

Kichik biznes zamonaviy iqtisodiyotda barqaror o‘shishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. U nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratadi, balki ishlab chiqarish jarayonining moslashuvchanligini oshirib, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Ayniqsa, sanoat sohasida kichik biznesning faol ishtiroki ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ko‘rsatkichlarini ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Qabul qilingan Prezident farmonlari va hukumat qarorlari kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, soliqqa oid imtiyozlar berish, kreditlash tizimini rivojlantirish va sanoat infratuzilmasini mustahkamlashga qaratilgan. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, sanoat ishlab chiqarishida ularning samaradorligini kuchaytirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Xorazm viloyati respublikaning iqtisodiy salohiyatli hududlaridan biri bo‘lib, unda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. Bu jarayonda kichik biznes subyektlarining faoliyati muhim o‘rin tutib, sanoatning umumiy ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Viloyatdagi kichik biznesning sanoatdagi ulushini o‘rganish, uning rivojlanish dinamikasi va tarkibiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali hududiy sanoatning barqaror rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni rivojlantirish va u bilan bog‘liq institutsional islohotlar masalasi xalqaro va milliy miqyosda ko‘plab olimlar e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Xususan, J. Schumpeter innovatsion faoliyatni iqtisodiy o‘shishning muhim drayveri sifatida baholab, kichik tadbirkorlikni iqtisodiy tizimning yangilanishi va moslashuvchanligida hal qiluvchi omil deb hisoblagan. M. Porter esa kichik korxonalar orqali mahalliy raqobat muhitining kuchayishi, tarmoq innovatsiyalarining shakllanishi va bozor mexanizmlarining faollashuvini asoslab bergan [1].

Hududiy rivojlanish nazariyalarida esa sanoatning joylashuvi va tarmoqlararo mutanosiblik masalalari muhim o‘rin egallaydi. A. Marshall tomonidan ishlab chiqilgan “sanoat aglomeratsiyasi” konsepsiyasida hududlarda sanoat korxonalarining bir joyda to‘planishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi va raqobatbardoshlikni oshirishi ta’kidlanadi [2]. M. Porter tomonidan ilgari surilgan “klaster nazariyasi”da esa hududiy klasterlashuv sanoat samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratishning muhim mexanizmi sifatida talqin qilinadi [3].

Xorijiy adabiyotlarda sanoat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, xususan, “Sanoat 4.0” kontsepsiyasi, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot omillari keng yoritilgan (Klaus Schwab, OECD hisobotlari va boshqalar). Bu yondashuvlarda

sanoatning barqaror rivojlanishi uchun yuqori texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va ekologik omillarga e'tibor qaratish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatiladi [4].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida G'. Rahimov, S. G'ulomov va A. Ismoilov kabi olimlar kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik muhiti barqarorligini ta'minlash, infratuzilma rivoji va normativ-huquqiy islohotlar tahliliga alohida e'tibor qaratganlar [5–8]. Jumladan, S. G'ulomov "O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda islohotlar tizimi" nomli maqolasida tartibga solish mexanizmlarining soddalashtirilishi va "bir darcha" tamoyili asosida xizmatlar ko'rsatishning afzalliklarini yoritgan. Mahalliy olimlardan K. X. Abdurahmonov, M. G. Pardayev, S. Salayev, R. I. Nurimbetov, A. Abdullayev va boshqa iqtisodchi olimlarning ishlarida hududiy sanoat tarmoqlarining transformatsiyasi, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari chuqur o'rganilgan [9]. Ularning tadqiqotlarida xususan, kichik biznesning sanoatdagi o'rni, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi.

Mahalliy amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi tobora ortib bormoqda va u hududiy iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanmoqda. Xususan, Xorazm viloyati misolida olib borilgan kuzatuvlar kichik biznesning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish va yengil sanoat tarmoqlarida faolroq ekanini ko'rsatadi. Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishidagi tendensiyalarini o'rganishda klassik iqtisodiy nazariyalar, klasterlashuv yondashuvlari va mahalliy olimlarning tadqiqotlarini kompleks qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda Xorazm viloyatining sanoat rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda ilmiy-tahliliy yondashuvlardan foydalanilgan. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: statistik tahlil usullari, dinamik tahlil, taqqoslash usuli, hududiy tahlil va shuningdek, metodologiya doirasida mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari hamda ilg'or ilmiy yondashuvlar (sanoat klasterlashuvi, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish konsepsiyalari) kompleks ravishda qo'llanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatida sanoatni rivojlantirish masalasi muammoligicha qolmoqda. Ya'ni, YHMda sanoat mahsulotlari ulushi respublika darajasiga nisbatan ikki barobardan oshiqroq hamda past qiymatni tashkil qiladi. Viloyatda sanoatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarini belgilab olgan holda sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash va sohada faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari sonini oshirish sohaning YHMdagi ulushini ko'tarilishiga xizmat qiladi. Shu sababli viloyatda sanoat sohasi rivojini ta'minlashda kichik biznesning roli va ahamiyatini

baholash hamda ularning sonidagi o'zgarishlarni yalpi mahsulotga ta'sirini miqdoriy usullar yordamida aniqlash talab qilinmoqda [10].

Umumiy hisobda Xorazm viloyatida kichik biznesning sanoatdagi ulushi nisbatan yuqori qiymatga ega bo'lganligi kuzatiladi, ammo ba'zi yillarda ushbu ko'rsatkichning keskin o'zgarish holatlarini ko'rish mumkin. Jumladan, 2014-yilda respublika miqyosida o'sish sur'ati saqlab qolingani bo'lishiga qaramay, viloyatdagi ulush oldingi yildagi 36,8 foizdan 29,7 foizgacha pasaygan. Natijada, tadqiq qilinayotgan davrda viloyatning ulushi mamlakat miqyosidagi ulushga nisbatan birinchi marta past qiymatga ega bo'lgan. Keyingi ikki yildagi keskin o'sish viloyat sanoatida kichik biznesning keyingi o'n yillikdagi maksimal darajaga yetishini va qaytadan ulushni mamlakat miqyosiga nisbatan oshishiga olib kelgan.

Ham mamlakat, ham viloyat miqyosida 2019-yilda sanoatda kichik biznes ulushining pasayishi kuzatilgan bo'lib, ushbu pasayish viloyat miqyosida ahamiyatsizroq bo'lgan. Ammo 2021-yilgacha keskin pasayish kuzatilishi viloyat ulushini yana mamlakatdagiga nisbatan yuqori qiymatga farq qilishiga sabab bo'lgan. Ba'zi tebranishlarni hisobga olmaganda, 2010–2016-yillarda ulush oshishi ta'minlangan bo'lsa, 2017–2024-yillarda pasayish kuzatilgan. Mazkur natijalar keyingi yillarda sanoat sohasidagi kichik biznesning rivojlanishi ijobiy tendensiyasiga ega emas degan xulosani bermaydi. Chunki mazkur davr mobaynida sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari yuqori sur'atlarda o'sish ko'rsatgan (1-rasm).



1-rasm. Xorazm viloyatida sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari sonini 2016-2024-yillardagi o'zgarishi nisbati¹

Korxonalar va tashkilotlar soni bo'yicha ma'lumotlar reestrda birinchi yanvar holatiga yuritilganligi sababli, 2016–2024-yillarda Xorazm viloyatida kichik biznes subyektlari faoliyatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlar o'zgarish natijalariga e'tibor qaratildi. Ushbu davr mobaynida viloyatda sanoat sohasida ro'yxatga olingan va

¹ Muallif ishlanmasi

faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 2,3 barobarga oshgan. Sohada kichik biznes subyektlari faoliyat natijalarini pasayishiga sabab bo'luvchi nafaol kichik korxonalar o'sish sur'ati ham yuqori bo'lib, 3,3 barobarga oshgan. Ya'ni, 84 birlikdan 273 birlikka qadar oshgani holda, kichik korxonalar faoliyat darajasini kamayishiga sabab bo'lgan.

Tadqiq qilinayotgan davr uchun eng yuqori o'sish sur'ati esa yangidan tashkil qilingan kichik biznes subyektlari soniga to'g'ri keladi. Ya'ni, ularning soni 4,9 barobarga oshgan; boshqa tomondan esa faoliyati tugatilgan korxonalar soni eng past o'zgarishga ega bo'lgani holda, ushbu davrda sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari yashovchanlik koeffitsiyentini oshirishga xizmat qilgan. Keltirib o'tilgan ikkita ko'rsatkich, ya'ni faoliyat darajasi hamda yashovchanlik koeffitsiyenti, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushini o'zgartirishdagi muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Korxonalar reyestri bo'yicha ma'lumotlar Statistika qo'mitasi tomonidan 2016-yildan shakllantirilishga boshlanganligi sababli, mazkur ko'rsatkichlar 2016–2024-yillar uchun hisoblab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Sanoat korxonalarini faollik darajasi hamda yashovchanlik koeffitsiyenti¹

Yil	Faollik darajasi		Yashovchanlik koeffitsiyenti	
	Jami sanoat korxonalari	kichik sanoat korxonalari	Jami sanoat korxonalari	kichik sanoat korxonalari
2016	96,4	96,4	35,2	35,6
2017	96,8	96,8	35,5	36,1
2018	95,7	95,7	-10,8	-10,9
2019	97,9	97,8	35,9	35,9
2020	96,4	96,3	55,7	55,6
2021	94,7	94,6	68,3	68,8
2022	94,9	94,9	80,5	80,6
2023	93,5	93,4	84,4	84,3
2024	94,0	94,0	67,8	68,0

Qiyosiy tahlilni amalga oshirish uchun faoliyat darajasi va yashovchanlik koeffitsiyenti jami hamda kichik sanoat korxonalari uchun ishlab chiqildi. Olingan natijalardan ma'lum bo'lishicha, jami va kichik sanoat korxonalari yashovchanlik koeffitsiyentlari deyarli farq qilmaydi. Asosiy farqlar 2017–2019-yillarga to'g'ri keladi. Ushbu davrda kichik sanoat korxonalarining yashovchanlik koeffitsiyenti 0,1 birlikka past bo'lgan va bu 2016-yildan keyingi yillarda kichik biznes subyektlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushini pasayishining asosiy sabablaridan biri sifatida qaralishi mumkin. 2021-yilda ham ayni holat kuzatiladi [11].

Bundan tashqari, 2017–2024-yillar mobaynida 2020 va 2024-yillarni hisobga olmaganda faoliyat darajasining biroz pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Faoliyat

¹ Muallif ishlanmasi

darajasi bo'yicha eng past ko'rsatkich 2021-yilga to'g'ri keladi va bu 2020-yilda pandemiya sababli joriy qilingan cheklovlarning natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Yashovchanlik koeffitsiyentining 2016-yilga kelib eng quyi darajaga tushishi jami va kichik sanoat korxonalarini uchun mos ravishda -10,8 va -10,9 foizni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, yangidan tashkil qilingan korxonalariga nisbatan tugatilganlari 10 foizdan oshiqroq miqdorni tashkil qilgan. Tabiiyki, bu tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasini asoslovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi [12].

Keyingi davrda bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samarasi natijasida ushbu ko'rsatkichning ijobiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lishi ta'minlangan. Faqat 2024-yilga kelib biroz pasayish kuzatilgan. Ba'zi yillardagi ahamiyatsiz farqlarni hisobga olmaganida, viloyatda sanoat sohasidagi jami va kichik korxonalar yashovchanlik koeffitsiyenti bir xil ekanligi kuzatiladi.

Soha rivojini tavsiflovchi yana bir muhim indikatorlardan biri — bu soha tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning jamiga nisbatan ulushi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich ham jami va kichik sanoat korxonalarini uchun aniqlangan (2-jadval).

2-jadval

Xorazm viloyatida sanoat korxonalarini jamiga nisbatan ulushi¹

Yil	Ro'yxatga olingan		Faol		Nofaol		Yangidan tashkil etilgan		Tugatilgan	
	Kichik korxonalar	Jami korxonalar	Kichik korxonalar	Jami korxonalar	Kichik korxonalar	Jami korxonalar	Kichik korxonalar	Jami korxonalar	Kichik korxonalar	Jami korxonalar
2016	18,8	15,1	18,9	15,2	16,2	12,3	24,7	20,9	18,3	17,8
2017	19,1	15,4	19,2	15,5	17,9	12,9	21,2	20,4	20,8	20,1
2018	18,2	14,6	18,1	14,7	19,1	13,7	17,1	15,9	18,2	17,8
2019	19,0	14,8	19,2	15,1	12,9	8,4	23,2	22,1	19,0	18,2
2020	19,5	15,7	19,6	15,8	18,2	13,5	24,6	22,9	17,4	13,0
2021	20,0	16,1	20,1	16,2	17,7	14,5	22,2	19,4	17,7	17,4
2022	19,6	16,4	19,6	16,4	19,8	16,5	19,8	19,1	18,3	17,6
2023	19,2	16,6	19,1	16,6	19,5	17,2	20,8	20,4	20,5	17,3
2024	19,5	17,1	19,4	17,1	20,4	17,8	22,2	21,5	19,9	19,3

Ya'ni, viloyatda 2014-yil 1-yanvar holatiga ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalarining 18,8 foizi jami korxonalarining 15,5 foizi sanoat sohasiga tegishli bo'lgan. Mazkur ko'rsatkichlar o'zgarishida tadqiq qilinayotgan davrda umumiy

¹ Muallif ishlanmasi

tendensiya mavjud emas. Ro'yxatga olingan kichik korxonalar bo'yicha sanoatning ulushi eng maksimal qiymatiga 2019-yilda erishgan bo'lsa, jami korxonalarda 2022-yilga to'g'ri keladi. Ya'ni, 2016–2017-yillardagi ulushni pasayishini hisobga olmaganda, viloyatda sanoat korxonalarining jamiga nisbatan ulushi o'sish sur'atiga ega bo'lgan.

Sanoat sohasidagi jami va kichik faol korxonalarining ulushi ba'zi yillarni hisobga olmaganda ro'yxatga olingan korxonalaridagi ulushga nisbatan yuqori bo'lib, sohadagi korxonalar faoliyat darajasi nisbatan yuqoriligi asoslanadi. Biroq viloyatda kichik sanoat korxonalari faoliyat darajasi boshqa sohalarga nisbatan oxirgi ikki yilda pasayishi kuzatilmoqda [13].

Shuningdek, sanoat sohasidagi nafaol korxonalarining jamiga nisbatan ulushini ham o'sishi kuzatilgan. Ya'ni, 2014-yil 1-yanvar holatiga 12,3 foizni tashkil qilgan ko'rsatkich 2024-yil 1-yanvar holatiga kelib 17,8 foizga qadar oshgan. Kichik korxonalarda mazkur ko'rsatkich nisbatan kamroq o'zgargan. Bu kabi natijalar mintaqada sanoat korxonalari faoliyati barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar mavjudligini dalolat beradi.

Yangidan tashkil qilingan kichik korxonalarda sanoatning ulushi nisbatan yuqori bo'lib, 2014 va 2018-yillarda mos ravishda 24,7 hamda 24,6 foizni tashkil qilgan. Ya'ni, viloyatda tashkil qilingan kichik korxonalarining deyarli to'rt-dan biri sanoat sohasiga to'g'ri kelgan. Biroq 2016 va 2020-yillarda mazkur ko'rsatkich o'zining quyi chegarasiga yetgan. Xususan, 2020-yilda 19,8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi ikki yildagi amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ushbu ko'rsatkich 22,2 foizga qadar oshirilgan.

Jami faoliyati tugatilgan korxonalarda sanoatning ulushi yetarli darajada katta, ammo yangidan tashkil qilingan korxonalarda sonidagi ulushga nisbatan kichik qiymatga ega bo'lmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, faoliyati tugatilgan kichik korxonalarda sanoatning ulushi jamiga nisbatan yuqori qiymatga ega bo'lmoqda. 2024-yilda jami faoliyati tugatilgan korxonalarda sanoat korxonalari ulushini oshishi ikkala ko'rsatkich orasidagi farqni qisqartirishga olib kelgan [14].

Viloyatda sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligini baholash maqsadida har bir subyektga to'g'ri keladigan ma'lumotlar tahlil qilindi. Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari qiymati 2010-yil narxlariga o'tkazildi. Olingan natijani viloyatda faol bo'lgan kichik biznes subyektlari soniga bo'lish orqali har bir kichik biznes subyektiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2013–2015-yillar mobaynida har bir kichik biznes subyektiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori deyarli ikki barobarga oshgani kuzatilmoqda. Ammo 2016-yilda oldingi yilga nisbatan 11 foizga pasaygan bo'lsa, 2017-yilda bu pasayish qoplanadi. 2019-yildan boshlab esa oldingi yilgiga nisbatan kamayish kuzatilgan. Natijada 2021-yilga borib, 15 million so'mni tashkil qilgani holda 2018-yildagiga nisbatan 26,2 foizga kamaygan.

Bundan ko'rinadiki, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda nafaqat sohada faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar sonini oshirish, ularning faoliyat darajasi va

yashovchanlik koeffitsiyentini oshirish lozim, balki ularning faoliyati samaradorligini ham ta'minlash talab qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlil natijalaridan ma'lum bo'lishicha, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning real qiymati o'sish sur'atiga ega bo'lgan bir sharoitda kichik biznes subyektlarining sanoatdagi ulushining kamayishi kuzatilmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida sohada faoliyat ko'rsatayotgan har bir kichik biznes subyektiga to'g'ri keladigan real mahsulot miqdorining kamaymaganligi va bu bevosita korxonalarni boshqarish hamda faoliyat samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Umumiy hisobda viloyatda jami sanoat mahsulotlarini yetishtirish hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.

Fikrimizcha, viloyatda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish jarayonini intensivlashtirish asosida har bir subyektga to'g'ri keladigan mahsulot miqdorini oshirish viloyatda sanoatni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Ya'ni, kichik biznesning sanoatdagi ulushini oshirish va soha taraqqiyotini ta'minlashda investitsion ta'minotni jadallashtirish muhim yo'nalishlardan hisoblanadi. Bu jarayonda investitsion jozibadorlikni oshirish asosida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, qo'shma korxonalarni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bundan tashqari, ijobiy natijalarga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish talab qilinadi:

- kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirib borish;

- kichik biznes subyektlarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va ularning faoliyatidagi yangiliklardan keng foydalanish;


- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish va raqobatbardoshligini kuchaytirish;

- mahalliy resurslardan, ayniqsa xomashyo va materiallardan foydalanish;

- boshqaruv mexanizmini takomillashtirish va mehnat unumdorligini oshirish;

- kichik biznesdagi bandlarning malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, ya'ni kichik biznes subyektlari uchun kadr yetkazib berish tizimini takomillashtirish.

Natijalardan ma'lumki, viloyatning sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari miqdorining o'sishi ta'minlangan, faqat ularning faoliyati samaradorligini oshirish talab qilinmoqda. Bunga esa korxonada ish jarayonini tashkil etish va boshqaruv samaradorligini oshirish orqali erishish mumkin. Sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari uchun tipik boshqaruv mexanizmiga e'tibor qaratildi (2-rasm).



2-rasm. Sanoat sohasidagi tipik kichik biznes korxonasi uchun boshqarish tizimi¹

Ushbu tizimdan ko‘rinib turibdiki, barcha boshqarish vazifalari ikki tomonlama hal qilinadi va uning samaradorligi ham shu ikki tomoniga bog‘liq. Shundan kelib chiqib, kichik korxonalarni boshqarish samaradorligi yirik korxonalarni boshqarish samaradorligini aniqlashdan farq qiladi. Shu asosda kichik biznes subyektlarining samaradorligi quyidagi formula asosida hisoblanishi mumkin:

$$E_{k.b.b} = E_{i.g.b} + E_{t.b.} \quad (1)$$

bunda, $E_{k.b.b}$ – kichik biznesni boshqarish samaradorligi;

$E_{i.g.b.}$ – ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligi;

$E_{t.b.}$ – tijoratlashni boshqarish samaradorligi.

Xorazm viloyatida sanoat, jumladan kichik korxonalarini rivojlantirish salohiyati va imkoniyatlari yuqori darajada mavjud. Shundan kelib chiqib, viloyatda yengil va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish masalalariga kengroq e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ammo viloyat sanoatida mahalliy xomashyoni qayta ishlash, ayniqsa kichik biznes subyektlarini tez rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish omillari (mehnat va kapital) past darajada qolmoqda.

Shuning uchun, avvalambor, sanoat va kichik korxonalarni viloyatda rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- maxsus maqsadli dasturlar asosida investitsion va innovatsion jozibadorlikni oshirish, mahalliy loyihalarni ishlab chiqish;
- viloyatda mavjud bo‘lgan muhandis-texnik salohiyatni amaliyotga joriy etish, yangi texnika va texnologiyalarni yaratishda ularning xizmatidan foydalanish;

¹ Muallif ishlanmasi

- mahalliy xomashyo va resurslardan foydalanib tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish;
- sanoatda yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy sanoat va ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi g‘oyalar va loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha tadbirlarni rag‘batlantirish;
- viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda mintaqalararo munosabatlarni rivojlantirish, ayniqsa qishloq joylarda industrial sektorning ulushini oshirish.

Tadqiqotlar natijalariga asoslanib aniqlangan mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha yuqorida keltirilgan takliflarni amaliyotga tatbiq etish viloyatda kichik biznesning rivojlanishini ta‘minlaydi. Shu asosda tadqiqot ishining keyingi paragrafida sanoatda kichik biznesning rivojlanishining ahamiyati miqdoriy usullar yordamida baholanishi ko‘zda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Marshall, A. (1920). Principles of Economics (8th ed.). London: Macmillan.
2. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
3. Rostow, W.W. (1960). The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
5. Abduraxmonov, Q.X.. Sanoatni modernizatsiya qilish jarayonida rivojlanish tendensiyalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №2(38), 2020, 45–52.
6. Gulyamov S.S. i dr. Tadbirkorlik va kichik biznes. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 1996.
7. Abdullayev, A. J. Iqtisodiyot rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli (Toshkent viloyati misolida). Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2(00040), 2019,1-13.
8. Karimov, A. O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni. Iqtisodiyot va ta‘lim, 9(3), 2018, 45-52.
9. Ismoilov, M. Rivojlangan davlatlarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash tajribasi va O‘zbekiston uchun saboqlar. Xalqaro iqtisodiyot va menejment jurnali, 11(1), 2019, 34-42.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi”, 2020 yil 30 dekabr.
11. Do‘stjanov T.D., Salayev S.K. Kichik biznesning katta imkoniyatlari. - Urganch.: Xorazm, 1997.
12. Pardayev, M.G.. Hududiy iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish muammolari. Iqtisodiyot va ta‘lim, №6(73), 2019, 12–20.
13. Nurimbetov, R., Kalmuratov, B., Mirzanov, B., Beglenov, N., & Bekbosinov, A. (2024). Development Of Forecasting Indicators Of Industry Development Trends In The Republic Of Karakalpagistan. Library of Progress-Library Science, Information Technology & Computer, 44(3).

14. Nurimbetov, R. I., & Karimov, K. M. (2025). The role of innovation policy in advancing uzbekistan's textile industry: empirical evidence and strategic forecasting. *Innovation Science and Technology*, 1(5), 115-120.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Ingliz tili muharriri:

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Rus tili muharriri:

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Musahhih:

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**